

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

*Elektron nashr,
760 sahifa, may, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish imkonoyatlari	12
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank aksiyalarining bozor bahosini shakllantiruvchi omillar va baholash metodologiyasi	18
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish va ular samaradorligini oshirish.....	23
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
Kichik biznesni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari	31
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlarini strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	35
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Prospects for improving the efficiency of deposit operations in commercial banks	42
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar mohiyati va ahamiyati.....	51
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
Elektron tijoratni rivojlantirishni boshqarish samaradorligini baholash natijalari tahlili.....	57
Madieva Zuxra Iskandarbekovna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlar barqaror ish bilan bandligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	63
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	70
Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
The role of sports marketing in training leadership personnel in the sports management system.....	75
B.Y.Hamraev	
Sanoat korxonalarida quyosh energiyasidan foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari	79
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasi	85
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich	
Роль центрального банка в контроле инфляции: политика инфляционного таргетирования	95
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Пиримкулов Фирдавс Шухратович	
Ко'pkari ot sporti o'yini chavandozlari sport kiyimini ishlab chiqish uchun tavsiya etilayotgan matolarning xususiyatlari tahlili.....	102
Musayeva Lobar Sayfullayevna, Po'latova Saboxat Usmanovna	
Оценка технико-экономических показателей автономной фотоэлектрической установки с устройством очистки от снега.....	107
Юлдошев Исроил Абриевич, Рустамова Шахноза Шухрат кизи, Ботиоров Бозорбек Мусурмон угли, Жураев Обид Шавкатович, Атоева Мохинур Амриллаевна	
Some considerations about the specific features of advertising texts	116
Mustaqimova Kunduz Sobirovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari amaliyoti tahlili.....	121
Tangriev Izzat Raxmatullaevich	



Fransuzcha va o'zbekcha terminlar vektori asosidagi semantik o'xshashlik.....	125
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Abduxadova Zilola Jamoliddinovna	
Sayyohlik tilining raqamli tadqiqi: fransuz va o'zbek terminlarining multimodal vektor va vizual xaritalanishi.....	131
Abduxadova Zilola Djamoliddinovna	
Обеспечение финансовой устойчивости предприятий: проблемы и решения	136
Аллаберганов Зокир Гойилович	
Qurilish korxonalarini boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini shakllantirishdagi muammolar	142
Alijonov Jamshid Alijon o'g'li	
Innovatsion startaplarni moliyalashtirishda venchur kapitali	149
Bozorova Ozoda Raximovna	
Pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solish	154
Berdiyev Akram O'ktamovich	
Yashil buxgalteriya hisobi va ekologik masalalarga oid xalqaro talablar va yondashuvlar	163
Eshquvvatova Muxlisa Avaz qizi	
Sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlari auditida muhimlik va risk darajasini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish	169
Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
Chizmageometriya fanida gamifikatsiya va didaktik o'yinlarning samaradorligi.....	174
Yo'ldashev Solmonjon Iqboljon o'g'li	
Tijorat banklarining nodepozit moliyaviy resurslarini optimallashtirish	179
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
Теоретические аспекты, причины и специфика безработицы (на примере Республики Узбекистан)	186
С.Э. Холмуратов	
Xalqaro oziq-ovqat bozorida raqobat sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga oid xorij tajribalari	191
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich	
O'zbekistonning butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari va uning soliq tizimiga ta'siri.....	202
Qurbonov Muxiddin Abdullaevich	
Qoraqalpog'istonda mehmonxona xo'jaligining hozirgi holati tahlili	207
Xalimova Fayoza Nafasovna	
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning bugungi kundagi ahamiyati.....	212
Norboyeva Mahliyo Rustamovna, Komiljon Baxromov Muzaffar o'g'li	
Method of drying melon using solar radiation and a household solar-infrared dryer.....	216
Khakimova Sabina Shamsiddin qizi, Qodirov Jobir Ro'zimamatovich, Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, Yangiboyev Fayoz G'aybulla o'g'li	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ini moliyalashtirish istiqbollari	227
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Влияние розничного кредитования на потребительский спрос	231
Базарова Нигора Равшановна	
Влияние розничного кредитования на потребительский спрос	231
Базарова Нигора Равшановна	
Прямые иностранные инвестиции как основной фактор повышения конкурентоспособности экономики стран	238
Наврүзов Икрам Абдуллаевич	
Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish	243
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Tayyor mahsulotlar hisobi bo'yicha xorij tajribasi va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.....	248



Xotamov Alisher Xotamjon o'g'li, Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich Sanoat korxonalarida asosiy vositalar qadsizlanishi va eskirishini hisobga olishni optimallashtirish.....	255
Kurbonova Shaxrinov Avazxonovna Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish	262
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Shanasirova Nodira Abdullayevna Digital transformation in public sector: advantages and challenges of the integration.....	266
Abdurakhmanova Sevinch Стратегическое планирование и предсказание результатов деятельности организации.....	271
Алимов Бехзоджон Наврузжонович Влияние привлечения инвестиций в национальную экономику на повышение конкурентоспособности предприятий.....	277
Каримова Дилафруз Садирдин кизи Nomoddiy aktivlar auditida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	283
Rozmatova Umida Yuldashevna To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantirishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish.....	290
X.A.Raximov "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishning innovasion mexanizmlari va normativ asoslari"	294
Karabaev Sanjar Abdusamatovich Tibbiyot muassasalarida iqtisodiy barqarorlikning dinamik tahlili.....	302
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich Korxonada faoliyatini optimallashtirishdagi iqtisodiy tahlilning roli va ahamiyati.....	308
Sattorov Mirjahon Роль контекстного маркетинга в условиях ограниченной аудитории и дефицита ресурсов.....	313
Дебердиев Анвар O'zbekistonda korxonalarining iqtisodiy barqarorligini raqamli texnologiyalar yordamida oshirish	319
Iminova Nargizaxon Akramovna, Mo'ydinov Ma'murjon Mansurjon o'g'li Jahon amaliyotida eksport moliyalashtirishi: uning shakllari, afzalliklari va kamchiliklari	328
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich Ramli transformatsiya va korxonaning barqarorligi	333
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.....	342
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li Роль цифровой эпохи в банковской сфере	346
Максудова Шахзода Yashil iqtisodiyotda innovatsiyalar va ekologik barqarorlik.....	350
Sultonov Omon Juma o'g'li Iqtisodiy modernizatsiya va uning davlat rivojlanishiga ta'siri	355
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li Международный опыт: применение корпоративного менеджмента в государственном управлении развитых стран.....	360
Махмудова Севара Улугбековна Carbon markets and agribusiness: assessing the role of emissions trading in promoting sustainable agricultural practices.....	366
Mubina Toirova Standartlashtirishda nanotexnologiyalarning o'rni va ahamiyati	371
Ahmedova Sitara Asqar qizi	



Sut mahsulotlarini saqlash jarayonini boshqarish tizimining barqarorlik masalasi.....	376
Sabirov Ulugbek Kuchkarovich, Oqilov Azizbek Kozimjon o'g'li	
Kredit risklarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.....	392
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Alyuminiy ion energiya saqlaydigan qurilmalarning afzalliklari	399
Bafoyev Abduhamid Hoshim o'g'li	
Buxgalteriya axborotining investisiya qarorlarga ta'siri.....	403
Rahmatova Shahnoza Shukurovna	
Комплексный подход к оценке и обеспечению финансовой безопасности текстильных предприятий.....	408
Турсунов Бобир Ортикмирзаевич	
Markaziy osiyo mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish: O'zbekiston tajribasi bilan solishtirma tahlil.....	416
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
Temir yo'l transportini rivojlantirishda xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari	422
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
IoT (Internet of Things) texnologiyalari va ularning ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilishi	428
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich, Yoqubov Bobur Mamasobir o'g'li	
Improvement of preparation of accounting policies in joint-stock companies	433
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'Ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish.....	437
Samadov Askarjon Nishonovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining v.z. vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	444
Kamola Xaydarova	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology	449
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
Korxonalarni qayta tashkil etishda moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha xalqaro tajriba, uni o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	456
Davletov Ikram Raximberganovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida turizm rivojini ta'minlovchi iqtisodiy va tashkiliy choralarni mukammallashtirish.....	462
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
Milliy iqtisodiyotda fond bozorini rivojlantirish istiqbollari	468
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Дифракция и отражение упругих поперечных волн в изотропной среде с жёсткой границей	476
Салиев А.А., Кеунимжаев М.К.	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalari samaradorligi va amaliy holati tahlili	481
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Aralash tolalardan tayyorlangan iplarning mustahkamlik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish	486
Nurboev Rashit Xudoyberdievich, Salimov Shuhrat Halimovich, Bozorov Rustam Rasulovich	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar	491
Khusniddin Egamnazarov	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	498
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	



Jismoniy shaxslar soliq ma'muriyatchiligining nazariy masalalari	505
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Ibragimov Boburshox Boxodir o'g'li, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Digital Transformation in Public Sector: Advantages and Challenges of the Integration.....	511
Abdurakhmanova Sevinch	
Важность проекта “Умный город” в Узбекистане.....	517
Акбаржон Иминов	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	522
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlar.....	530
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Влияние цифровизации на сокращение теневой экономики: возможности и ограничения	536
Срождиддинова З.Х., Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Строительство здания с ограждающей конструкцией из энергоэффективных мелкоштучных трехслойных блоков	540
Акрамов Х.А., Тохиров Ж.О.	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового Узбекистана.....	546
Умаров Б.С.	
Современные тенденции и перспективы повышения износостойкости футеровок в горно-размольных установках	556
Акмал Жуманазаров, Илхом Эгамбердиев, Элбек Очилов, Маъруф Саибов	
Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	562
Suyunov Dilmurod Xolmurodovich, Habibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
Kredit risklarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.....	570
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Iqtisodiy islohotlar jarayonida tovar va xizmatlar importining narxlar shakllanishiga ta'siri	577
Bababekova Gulchexra Baxtiyorovna	
Теоретические вопросы инвестиционного обеспечения центров инновационного роста региона	584
Умаров Б.С	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalari samaradorligi va amaliy holati tahlili	591
Axmedov Shoymurod	
Lazer nurlari ta'sirida wet-blue charm yarim mahsuloti xususiyatlarining o'zgarishi	596
Qodirov T.J, Azimov J.Sh, Yusupova D.N	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	601
Islomova Dilrabo Salomovna	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari	606
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Eksport faoliyatini rivojlantirish: global tajribalar va milliy imkoniyatlar	609
D.E.Qarshiev	
Iot (internet of things) texnologiyalari va ularning ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilishi	614
Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich, Yoqubov Bobur Mamasobir o'g'li	
Sa'noat korxonalarini va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati	621
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamasul O'g'li, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Комплексный подход к оценке и обеспечению финансовой безопасности текстильных предприятий.	625
Турсунов Бобир Ортикмирзаевич	



Method of Drying Melon Using Solar Radiation and a Household Solar-Infrared Dryer.....	633
Khakimova Sabina Shamsiddin qizi, Qodirov Jobir Ro'zimamatovich, Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, Yangiboyev Fayoz G'aybulla o'g'li	
Kabel izolyatsiyasi holatini monitoring va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari muammolari	633
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Controlling Execution Mechanisms in Intelligent Systems Using Neural Networks	649
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'li	
Algorithm for Optimizing Repetitive Tasks in Production Process Execution Mechanisms	654
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'li	
Ijro mexanizmlarini visual simulyatsion modellashtirishning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi ahamiyati	659
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul O'g'li, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Kompaniyaning strategik qarorlar qabul qilishida pul oqimini tahlili va uni bashoratlashning ahamiyati	663
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Pul oqimi haqida hisobot: xalqaro tajriba va milliy amaliyotda qo'llanilishini takomillashtirish	667
Xaydarova Nargiza Anvarovna	
Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning holati	676
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta'siri.....	680
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Tadbirkorlikni samarali boshqarishda va raqamli texnologiyalardan foydalanishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi	687
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Теоретические вопросы инвестиционного обеспечения центров инновационного роста региона	688
Умаров Б.С	
Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmandchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlari	696
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
A Comparative Technological Assessment of Lubricants Utilized in Cotton Ginning and Spinning Mills.....	700
Shokhsanam Imomalieva, Anvar Makhkamov, Doniyor Dadamirzayev, Mirzabek Nabijanov	
Joriy aktivlar auditida firibgarlik holatlarini aniqlash metodlarini takomillashtirish.....	704
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Состояние гендерного равенства в экономических секторах и влияние стереотипов на рынок труда (с фокусом на Узбекистан)	710
Адалат Худайбергенова Неъматуллаевна, Севинч Фатиллоева Лутфилло кизи, Дилфуза Абдуллаева Розакуловна	
Динамика международных денежных переводов и тренды их развития в узбекистане	718
Гимранова О. Б.	
Turizm sohasi investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar	726
Ayubov Ilyos Iloxovich	
Enhancing waste management efficiency through digital technologies.....	732
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi	740
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Tijorat bank aktivlari portfelini samaradorligini takomillatirishning zamonaviy yo'llari	747
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari.....	753
Mirzaxmedova A. A.	



TIJORAT BANKLARINING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDAGI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Mirzaxmedova A. A.
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: So'nggi yillarda atrof-muhit muammolarining kuchayib borayotgani bank sektorining ekologik barqarorlikka bo'lgan yondashuvini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi o'rmi, ularning amaliy harakatlari va mavjud imkoniyatlari tahlil qilinadi. Yashil moliyalashtirishni ilgari surayotgan banklar va an'anaviy yondashuvdagi banklar o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazilib, jadval va grafiklar orqali ularning afzallik va kamchiliklari ochib berilgan. Yakunda esa yashil iqtisodiyotni bank tizimiga integratsiya qilish bo'yicha amaliy va strategik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, tijorat banklari, ekologik moliyalashtirish, ESG tamoyillari, moliyaviy barqarorlik, O'zbekiston.

Abstract: As environmental challenges grow more pressing, the role of the banking sector in supporting ecological sustainability becomes increasingly vital. This article explores how commercial banks in Uzbekistan are engaging with the green economy transition, analyzing their current efforts, approaches, and the opportunities ahead. A comparative overview highlights the differences between banks adopting green finance strategies and those sticking to traditional models, supported by visuals and data. The paper concludes with practical and strategic recommendations for integrating green principles into Uzbekistan's banking system.

Keywords: green economy, commercial banks, green finance, ESG principles, financial sustainability, Uzbekistan.

Аннотация: Учитывая нарастающие экологические угрозы, становится очевидной необходимость активного участия банковского сектора в обеспечении устойчивого развития. В данной статье рассматривается, каким образом коммерческие банки Узбекистана включаются в процесс перехода к «зелёной» экономике. Проводится анализ текущих инициатив, стратегий и перспектив. Представлено сравнительное исследование банков, использующих зелёные финансовые инструменты, и тех, кто придерживается традиционного подхода. Графики и таблицы помогают визуализировать различия. В завершение даются практические и стратегические рекомендации по внедрению зелёных стандартов в банковскую сферу Узбекистана.

Ключевые слова: зелёная экономика, коммерческие банки, зелёное финансирование, принципы ESG, финансовая устойчивость, Узбекистан.

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar – iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi va biologik xilma-xillikning yo'qolib borishi — insoniyatni barqaror rivojlanishning yangi yo'nalishlarini izlashga undamoqda. Shu nuqtayi nazardan olganda, "yashil iqtisodiyot" tushunchasi nafaqat ekologlarning, balki iqtisodchilar, siyosatchilar, moliyachilar va xususan, tijorat banklari diqqat markaziga tushmoqda. Yashil iqtisodiyot bu – atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirgan holda iqtisodiy o'sishga erishish, resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror infratuzilmani shakllantirishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdir.

Ushbu transformatsion jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan moliyaviy sektorga, xususan, tijorat banklarining faoliyatiga bog'liq. Banklar iqtisodiy hayotning har bir qatlamiga

ta'sir o'tkaza oladigan moliyaviy institut sifatida yashil o'zgarishlarni moliyalashtirishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Ular yashil kreditlar, obligatsiyalar, investitsiya loyihalari va boshqa moliyaviy vositalar orqali ekologik toza tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shu bilan birga, banklar mijozlar, tadbirkorlar va yirik korxonalar orasida ekologik mas'uliyatni oshirish, "yashil fikrlash" madaniyatini shakllantirishga ham hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston ham bu boradagi global tendensiyalardan chetda qolmayapti. Mamlakatda "yashil energetika", "barqaror infratuzilma" va "ekologik tadbirkorlik" kabi yo'nalishlarga qiziqish ortib bormoqda. Biroq yashil iqtisodiyotga o'tishda tijorat banklarining ishtiroki hali to'laqonli emas. Shunga qaramay, yurtimizda ham barqaror bank tizimi tamoyillarini (ESG) yaratish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga keng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to'laqonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini transformatsiya qilish hamda xususiylashtirishni jadallashtirish, iqtisodiyotda samarasiz ishlayotgan korxonalar ulushini kamaytirish hisobiga sifat jihatidan yangi, xususan, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillariga asoslangan investitsiyalar va ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarning ko'payishini rag'batlantirish davlat tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyotga o'tish va ushbu jarayonda moliyaviy institutlar, xususan, tijorat banklarining roli so'nggi yillarda ko'plab olimlar va amaliyotchilar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Global miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bank sektori — iqtisodiy barqarorlikka erishishda eng muhim instrumentlardan biridir. Shu sababli, yashil moliyalashtirish va ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari ilmiy izlanishlarning markaziga aylanmoqda.

BMT Atrof-muhit dasturining moliya tashabbusi — UNEP Finance Initiative (UNEP FI) esa 2021-yildagi "Mas'uliyatli banklar tamoyillari" nomli hisobotida banklarning yashil iqtisodiyotga o'tishda tutgan o'rni va majburiyatlarini belgilab berdi. Ushbu tamoyillar asosida banklar ekologik xavflarni kamaytiruvchi loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berishi, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) risklarini o'z faoliyatiga tatbiq qilishi zarurligi ta'kidlangan².

Kanadaning Waterloo universiteti professori Dr. Olaf Weber moliyaviy sektorning barqaror rivojlanishdagi o'rni haqida olib borgan tadqiqotlarida tijorat banklarining nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishdagi strategik rolini ta'kidlaydi. U banklar qaror qabul qilishda ekologik xavflarni baholash tizimini integratsiya qilishi zarurligini asoslab beradi. Aynan ushbu jarayon orqali moliyaviy resurslar ekologik toza loyihalarga yo'naltirilishi mumkinligi qayd etiladi³.

Xitoyning Tsinghua va Fudan universitetlarida faoliyat yuritayotgan olimlar — Dr. Hong Cheng va Dr. Donghui Zhang esa o'z izlanishlarida Xitoy tajribasini chuqur tahlil qilgan. Ularning ilmiy ishlarida ta'kidlanishicha, mamlakatda "Green Credit Policy" asosida tijorat banklari ekologik standartlarga javob bermaydigan loyihalarni moliyalashtirishni cheklagan, aksincha, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindi kamaytirish, va ekologik transport sohasiga ustuvor kredit ajratishni yo'lga qo'ygan. Ular "yashil bank" modelining institutsional asoslarini ham ishlab chiqqan⁴.

Mahalliy olimlar ham O'zbekistonda yashil moliya tizimini shakllantirish va tijorat banklarining bu boradagi ishtirokini kuchaytirish masalasiga e'tibor qaratishmoqda. Jumladan, Raxmonov R. o'z maqolasida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda tijorat banklari hali to'liq imkoniyatlarini ishga

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni

2 <https://www.unepfi.org/publications/green-finance/>

3 Weber, O. (2012). The financial sector's impact on sustainable development. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 2(1), 29–37

4 Cheng, H., & Zhang, D. (2019). Green finance development in China: Policy evolution and framework. *Sustainability*, 11(4), 1345. <https://doi.org/10.3390/su11051345>



solmayotganini tanqidiy tahlil qiladi. U yashil kreditlar, obligatsiyalar va moliyaviy imtiyozlarning mavjud emasligi yoki kamligi bu sohaga sarmoya oqimini sekinlashtirayotganini ko'rsatadi⁵.

Hamidova D. (2021) esa yashil iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini taklif qiladi. U ekologik loyihalar uchun soliq imtiyozlari, kafolat fondlari va riskni kamaytiruvchi vositalar orqali banklarni yanada faolroq qilish mumkinligini aytadi⁶.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi ishtiroki global miqyosda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajribalardan ko'rinadiki, moliyaviy institutlar o'z faoliyatiga ekologik mezonlarni integratsiya qilgan holda, nafaqat barqaror foyda, balki ekologik va ijtimoiy qiymat ham yaratishga intilmoqda. O'zbekiston olimlari ham bu boradagi muammolar va imkoniyatlarni tahlil qilgan holda, milliy modelni shakllantirish uchun amaliy tavsiyalar bermoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlillardan foydalanilgan. Maqolada, yashil iqtisodiyot, uni rivojlantirish bosqichlari, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning roli hamda tahlil qilishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlarni tadqiq etish tendensiyalarini ishlab chiqish va uning iqtisodiy tizimdagi ahamiyatiga mos ravishda ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot deganda, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan va ijtimoiy tenglikni saqlagan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi barqaror model tushuniladi. Bu yondashuv nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, balki ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni ham o'z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi — uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda jamiyat farovonligi va tabiat barqarorligini uyg'unlashtirishdir.

Bugungi kunda insoniyat tobora kuchayib borayotgan iqlim o'zgarishlari, resurslar taqchilligi, biologik xilma-xillikning kamayishi va ijtimoiy tengsizlik kabi murakkab muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ularni alohida-alohida hal qilish deyarli imkonsiz. An'anaviy iqtisodiy model esa bu muammolarni yechishda yetarli bo'lmayapti — u ko'proq ortiqcha iste'molni rag'batlantirish, ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtirish va ekologik muvozanatni buzishga olib kelmoqda. Bunga qarshi ravishda, yashil iqtisodiyot modeli esa mutlaqo boshqa yo'nalishni tanlaydi: u iqtisodiy o'sishni tabiatga e'tiborli yondashuv bilan uyg'unlashtirishni, resurslar iste'molida mas'uliyatni, hamda aholining ijtimoiy himoyasini birgalikda ko'zlaydi. Shu bois, yashil iqtisodiyot kelajakka yo'naltirilgan, muvozanatli va barqaror taraqqiyot sari qadamdir.

1-jadval. Yashil iqtisodiyotni qo'llovchi va qo'llamaydigan an'anaviy banklar taqqoslanishi⁷

Mezonlar	Yashil iqtisodiyotni qo'llovchi banklar	Qo'llamaydigan an'anaviy banklar
Yashil kredit mahsulotlari mavjudligi	Mavjud (Agrobank, SQB, Ipoteka Bank)	Yo'q yoki cheklangan
ESG tamoyillariga amal qilishi	To'liq joriy etilgan	Qisman yoki umuman yo'q
Ekologik risklarni baholash tizimi	Baholovchi komissiyalar faoliyat yuritadi	Baholash tizimi mavjud emas
Yashil obligatsiyalar chiqarilishi	Chiqarilgan (masalan, SQB orqali)	Chiqarilmagan
Xalqaro ekologik fondlar bilan hamkorlik	Hamkorlikda loyihalar yuritilmoqda	Hamkorlik yo'q
Atrof-muhitga ta'sirni kamaytiruvchi tashabbuslar	Ichki ekologik siyosatlar ishlab chiqilgan	Ichki siyosat mavjud emas

5 Raxmonov, R. (2022). Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi ishtirokini kuchaytirish omillari. Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar

6 Hamidova, D. (2021). Yashil iqtisodiyot sharoitida banklarning moliyaviy strategiyasi. TDIU Ilmiy jurnali,

7 Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ayrim tijorat banklari yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha aniq choralarni ko'rmoqda. Masalan, Agrobank, SQB va Ipoteka Bank kabi banklar yashil kredit mahsulotlarini ishlab chiqqan, ESG tamoyillarini joriy etgan va xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlamoqda. Boshqa tarafdin, ba'zi an'anaviy banklarda esa bu yo'nalishlar hali joriy etilmagan, yoki umuman mavjud emas. Bu farq banklar strategik qarorlarida ekologik barqarorlik qanchalik ustuvor ekani bilan bog'liq. Taqqoslovdan ko'rinadiki, yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi banklar bir necha muhim afzalliklarga ega:

Afzalliklari

Moliyaviy barqarorlik va xalqaro imidj: Ular ekologik loyihalarni moliyalashtirish orqali xalqaro ekologik fondlar bilan hamkorlik qilish imkoniga ega bo'ladi, bu esa xorijdan sarmoya jalb etish imkoniyatini kengaytiradi.

Innovatsiyalarni joriy etish: Yashil texnologiyalar va ESG (ekologik, ijtimoiy, boshqaruv) tamoyillarini integratsiya qilish orqali raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lishadi.

Barqaror mijozlar bazasi: Atrof-muhitga e'tiborli mijozlar bilan ishlash orqali ijtimoiy mas'uliyatli brend imijini shakllantiradi.

Reputatsion foyda: Yashil tashabbuslar orqali banklar ommaviy axborot vositalarida va xalqaro reytinglarda ijobiy baholanadi.

Kamchiliklari:

Boshlang'ich sarmoya katta bo'lishi mumkin: Yashil kredit liniyalari va hisobot tizimlarini joriy qilish ma'lum darajada moliyaviy va texnologik resurs talab qiladi.

Kadrlar yetishmovchiligi: ESG sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi rivojlanishni sekinlashtiradi.

An'anaviy banklar – yashil iqtisodiyotga o'tmagan banklar:

Afzalliklari:

Kam xarajatli operatsiyalar: Yangi tizimlarga sarmoya kiritilmagani uchun qisqa muddatda xarajatlar past bo'ladi.

An'anaviy mijozlar bilan barqaror munosabat: O'zgarishsiz xizmat ko'rsatish odatiy mijozlarga mos keladi.

Kamchiliklari:

Kelajakdagi raqobatda orqada qolish xavfi: Yashil standartlarga moslashmagan banklar xalqaro moliyalashtirishdan va ekologik loyihalardan chetda qoladi.

Xalqaro reytinglar va investorlar e'tiboridan chetda qolish: ESGga befarq banklar global moliyaviy bozorlar oldida ishonchligini yo'qotadi.

Yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi tijorat banklari nafaqat ekologik mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan, balki strategik jihatdan ham zamonaviy moliyaviy talab va global tendensiyalarga moslashishga harakat qilmoqda. Ular ESG tamoyillarini joriy qilgan, ekologik risklarni hisobga oluvchi baholash tizimiga ega, yashil obligatsiyalar orqali mablag' jalb qilmoqda hamda xalqaro ekologik moliyalashtirish manbalariga yaqinlashmoqda. Bu esa ularga uzoq muddatda moliyaviy barqarorlik, ijobiy brend imij va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini beradi. Aksincha, yashil iqtisodiyotni hali joriy qilmagan banklar — ya'ni an'anaviy yo'nalishdagi banklar — ekologik risklarni inobatga olmasligi, ichki siyosat va tashabbuslarning mavjud emasligi sababli moliyaviy raqobatda orqada qolish xavfiga duch kelmoqda. Ular uchun bu holat qisqa muddatda xarajatni kamaytirishi mumkin, biroq uzoq muddatda moliyalashtirish manbalariga cheklovlar, xalqaro reytinglarning pastligi va reputatsion salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu boisdan ham, O'zbekiston bank sektori yashil iqtisodiyot yo'nalishiga to'liq va tizimli o'tishni boshlashi lozim. Bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir.



1-rasm. O'zbekistonda tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga nisbatan faolligi⁸

Grafikda ko'rsatilganidek, O'zbekistondagi tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga qaratilgan faoliyat darajasi turlicha. SQB, Agrobank va Ipoteka Bank yuqori faollik ko'rsatgan — ular barqaror rivojlanish maqsadlarini o'z strategiyalariga kiritgan va yashil moliyaviy vositalar orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirmoqda. Aksincha, Asaka Bank, Hamkorbank va Xalq Bank tomonidan bu boradagi faoliyat nisbatan sust bo'lib, ular hali keng ko'lamlı yashil tashabbuslarni boshlamagan. Bu esa, O'zbekistonda yashil bank tizimini chuqurlashtirish va kengaytirish zaruriyatini ko'rsatadi. Banklar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z zimmasiga olishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi global iqtisodiy muhitda yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik mas'uliyat, balki iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikning ham muhim omiliga aylanmoqda. O'zbekiston tijorat banklari bu yo'nalishda turlicha yondashuvni namoyon qilmoqda — ayrim banklar (masalan, Agrobank, SQB, Ipoteka Bank) yashil moliyaviy mahsulotlar, ESG tamoyillari va xalqaro ekologik fondlar bilan hamkorlik orqali faol harakat qilayotgan bo'lsa, ko'plab an'anaviy banklar bu yo'lda sustlik qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi banklar uzoq muddatda yuqori barqarorlikka, xalqaro moliyaviy ishonchga va ijobiy ijtimoiy ta'sirga erishmoqda. Bu borada hali islohotga muhtoj banklar esa ekologik talablar va moliyalashtirishdagi o'zgarishlarga tayyor emasligi sababli kelajakda sezilarli yo'qotishlarga duch kelish xavfi ostida turibdi.

Shunday ekan, yashil iqtisodiyotga o'tish banklar uchun nafaqat majburiyat, balki katta imkoniyat hamdir — bu imkoniyatni erta anglaganlar iqtisodiy jihatdan ham, ijtimoiy mas'uliyat nuqtayi nazaridan ham yutadi. Yuqoridagi tahlillarimiz orqali tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyati bo'yicha bir qancha takliflarimizni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. Yashil strategiyalarni har bir bankning rivojlanish dasturiga integratsiya qilish: Tijorat banklari o'z strategik rejalariga ekologik barqarorlikka oid aniq maqsadlar va indikatorlarni kiritishi lozim.

2. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini bank tizimida majburiy mezon sifatida joriy etish: ESG tamoyillarini kredit baholash, investitsiya qarorlari va risk menejmentida qo'llash — xalqaro standartlarga yaqinlashadi.

8 Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan



3. Yashil obligatsiyalar, ekologik kredit liniyalari va ekologik sug'urta mahsulotlarini keng joriy qilish: Banklar innovatsion moliyaviy vositalarni ishlab chiqib, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan loyihalarni moliyalashtirish imkonini kengaytirishi kerak.

4. Bank xodimlari uchun yashil moliya va ekologik menejment bo'yicha doimiy o'quv dasturlarini tashkil etish: Kadrlar malakasi yashil iqtisodiyot siyosatining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

5. Regulyatorlar tomonidan yashil moliya ko'rsatkichlari bo'yicha reyting tizimi joriy etilishi: Bu banklar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantiradi va moliyaviy tizimni ekologik jihatdan uyg'unlashtiradi.

6. Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni kuchaytirish: Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, va UNDP kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik yo'naltirilgan kredit liniyalarini jalb qilish banklar uchun foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni
2. <https://www.unepfi.org/publications/green-finance/>
3. Weber, O. (2012). The financial sector's impact on sustainable development. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 2(1), 29–37
4. Cheng, H., & Zhang, D. (2019). Green finance development in China: Policy evolution and framework. *Sustainability*, 11(4), 1345. <https://doi.org/10.3390/su11051345>
5. Raxmonov, R. (2022). Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi ishtirokini kuchaytirish omillari. *Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar*
6. Hamidova, D. (2021). Yashil iqtisodiyot sharoitida banklarning moliyaviy strategiyasi. *TDIU Ilmiy jurnali*,

muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100